ADHAM MAVLONOV

# MAXSUS TARIXIY FANLAR ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

*ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI*

MAXSUS TARIXIY FANLAR ASOSLARI

fanidan

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN

# USLUBIY KO'RSATMA

NAMANGAN-2019

Ushbu uslubiy ko'rsatma Namangan Davlat universitetining o'quv-uslubiy kengashi tomonidan 201__-yil ____ - ________________da _____-sonli yig'ilishida tasdiqlangan "Maxsus tarixiy fanlar asoslari" fanining na'munaviy dasturi talablari asosida ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma oliy o'quv yurtlari Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishining bakalavriat bosqichi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarga oid atamalar bo'yicha bilimlar, ko'nikma va malakalar berish belgilab berilgan.

**Ma'sul muharrir:** **A. A. Sarimsoqov**
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:** **B. R. Xalmuratov**
PhD, katta o'qituvchi
**N. B. Dexkanov**
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 201__-yil ______ - _____________dagi _____- sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**A. A. Mavlonov**

Maxsus tarixiy fanlar asoslari. (Seminar mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatma).

– Namangan, 201__. – 40 b.

**© Namangan Davlat Universiteti**

# KIRISH

Maxsus tarixiy fanlarga diplomatika, xronologiya, metrologiya, sfragistika, geraldika, numizmatika, arxeografiya, genealogiya, kartografiya kabi fanlar taalluqlidir. Tarixiy fanlar tizimida yana. epigraflka ham muhim o'rin egallaydi. Kodikologiya, berestologiya, bonistika, faleristika, veksellologiya, emblematika, filokratiya va boshqa fanlarning ham maxsus tarixiy fanlar sirasiga kirganiga ko'p bo'lmadi. Tarixiy tadqiqotlar jarayonida maxsus tarixiy fanlar o'zining mustaqil, muhim tadqiqot maqsadi, alohida tahlil usullari borligi bilan ajralib turganligi bois, ularga fanning "yordamchi" sohasi deb qarash noto'g'ridir. Maxsus tarixiy fanlar asoslari tarix fanining rivojida birinchidan, to'g'ri dalillarni berish, ikkinchidan, tarixiy jarayonlarning muhim tomonlarini yoritishi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan maxsus tarixiy fanlar tarixning "yordamchilari" hisoblanadi. Jumladan, qadimgi va o'rta asrlarga oid matnni paleografiyani bilmasdan turib o'qish yoki tarixiy voqeaning sanasini to'g'ri o'girish qoidasisiz uni qanday aniqlash mumkin?

Maxsus tarixiy fanlar asoslari tarix fani, arxivshunoslik sohasi bilan chambarchas bog'liqdir. Maxsus tarixiy fanlarni bilmasdan turib tarixchi, arxivshunos yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishi mushkul. O'rta asrlardagi yirik tarixchilar manbashunos, diplomatist va paleograf bo'lganligi bejiz emas. Tarix fanidagi yutuqlar qaysidir ma'noda maxsus tarixiy fanlar sohasidagi rivojlanishiga ham bog'liq. Mazkur omil tarix fanining birligini isbotlab, uni "asosiy", "maxsus" va "yordamchi" fanlarga bo'lish shartli ekanligini bildiradi. Maxsus tarixiy fanlarining mustaqil maqsad va vazifalari borligi ham ularning har biri alohida fan tarmog'i ekanligidan dalolat beradi.

Oliy o'quv yurtlarining arxivshunoslik yo'nalishlarida "Maxsus tarixiy fanlar asoslari" fanini o'qitish uslublarini ishlab chiqish hamda talabalarga chuqur bilim berish esa bugungi kunda shu fandan dars beradigan professor-o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar talaygina. XXI asr insoniyat tarixiga axborot asri bo'lib kirgan ekan, barcha fanlarga oid eng so'nggi yangiliklar, amalga oshirilgan ishlar va kashfiyotlar haqida yosh avlodga ma'lumot berish ham muhim vazifalardan biri sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda, "Maxsus tarixiy fanlar asoslari"fanidan talabalarga chuqur va mukammal bilim berish, ularda egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olish malakasini shakllantirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadni amalga oshirishda esa zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos ekanligini unutmasligimiz darkor. Ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatma ham ayni shu maqsadlarimizni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

## 1-MAVZU: "MAXSUS TARIXIY FANLAR ASOSLARI" FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. "Maxsus tarixiy fanlar asoslari" fanining maqsadi va vazifalari
2. "Maxsus tarixiy fanlar asoslari" fanining fan sifatida shakllanish tarixi
3. Maxsus tarixiy fanlar turkumiga kiruvchi fanlar

**Darsning maqsadi:** Talabalarda "Maxsus tarixiy fanlar asoslari" fani to'g'risida tushunchalar hosil qilish, fanning predmeti, maqsadi va vazifalari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** "Maxsus tarixiy fanlar" (ko'pincha "yordamchi tarixiy fanlar" deb ham yuritilishi) baynalminal tushunchaligi., Nemis tilidagi "Die historischen Hilfswissenschaften" atamasidan kelib chiqqanligi, Xuddi shunday atama fransuz, ingliz, polyak va boshqa tillarda ham mavjudligi ("les sciences auxiliaries de l'historie", "the auxiliary historical disciplines", "nauki pomocniczc histori" va hokazo), Tarix, arxivshunoslik fanlarini o'rganishda maxsus tarixiy fanlarning tutgan o'rni, Kurs bo'yicha asosiy adabiyot va manbalar, Maxsus tarixiy fanlar turkumiga kiruvchi fanlar, Maxsus tarixiy fanlarning asosiy qoidalari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Maxsus tarixiy fanlar tushunchasi qayerda paydo bo'lgan?
2. Asosiy maxsus tarixiy fanlar qaysilar?
3. Maxsus tarixiy fanlar va yordamchi tarixiy fanlar farqlari?
4. "Die historischen Hilfswissenschaften" atamasi haqida ma'lumot bering.
5. "nauki pomocniczc histori" atamasi haqida nimalar bilasiz?

**Tayanch iboralar:** "Die historischen Hilfswissenschaften", "nauki pomocniczc histori", "the auxiliary historical disciplines", "yordamchi tarixiy fanlar"

## Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.

2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.

3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.

4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.

5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.

6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.

7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.

8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.

9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.

10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.

11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.

13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.

14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.

15. Тарихий манбашунослик. / Ўкув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.

16. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.

17. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.

18. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.

## 2-MAVZU: PALEOGRAFIYA.

Reja:

1. Paleografiyani fan sifatida shakllanish tarixi
2. Qadimgi yozuvlarning paydo bo'lishi
3. Arab paleografiyasi.
4. O'zbek paleografiyasi tarixi.

**Darsning maqsadi:** Poleografiya fani, uning shakllanish tarixi, kriptografiya, qadimgi yozuvlarning vujudga kelishi, O'zbekistonning eng qadimgi

yozuvlaridan bugungi kun yozuvlarigacha bosib o'tgan yo'li haqida ma'umot berishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Paleografiya so'zi istiloh sifatida ikkita yunoncha so'zdan tashkil topgan: «palayos» – qadimgi va «grafo» – yozaman. Paleografiya fani qo'lyozma manbalarning tashqi belgi-xususiyatlarini tarixiy rivojlanishda o'rganadi. Paleografiya fani o'rganadigan u yoki bu qo'lyozma manbaning tashqi belgi-xususiyatlari quyidagilardan iborat: qo'lyozma harflari, bu harflarning yozilish xususiyatlari, yozuv turi, qo'lyozmaning materiali, yozuv qurollari, qo'lyozmada ishlatilgan bezaklar, qo'lyozma yozilgan siyoh, qo'lyozmadagi tamg'alar, muhrlar, qo'lyozmaning formati, qo'lyozma muqovasi va boshqa tashqi belgilar. Paleografiyaning vazifasi quyidagilardan iborat: harflarning grafikasi, xususiyatlarini, harflarning rivojlanishini, yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, qo'lyozmadagi matnni xatosiz o'qiy olish; qo'lyozma manbaning yozilgan vaqtini aniqlash; qo'lyozma yaratilgan hududni aniqlash; qo'lyozma kim tomonidan yozilganligini belgilash; qo'lyozmaning asl nusxa yoki qalbaki ekanligini aniqlash va hakozo. Paleografiya ilmiy fan sifatida epigrafika, sfragistika, numizmatika, xronologiya, shuningdek manbashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu fanlar bir-birini o'rganishga yordam beradi va o'zaro bir-birini to'ldiradi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Kriptografiya nima?
2. Paleografiya qaysi fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi?
3. Paleografiyani o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalar deb o'ylaysiz?
4. Qachondan boshlab yurtimiz hududida yozuvlar paydo bo'lgan?
5. Arab paleografiyasiga ta'rif bering.

**Tayanch iboralar:** Kriptografiya, piktografiya, aramey, mixxat, iyeroglif, papyrus, qog'oz, pergament, Roulinson, Shampalyon, Dyupperon arab yozuvi, krill yozuvi, lotin yozuvi.

### Adabiyotlar


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.
12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.
13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.
14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.
15. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.
16. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.
17. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
18. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.


## 3-MAVZU: EPIGRAFIKA

Reja:

1. Epigrafika fanining maqsadi va vazifalari
2. Epigrafikaning fan siftida rivojlanishi
3. Epigrafik matnlardan tarixiy manba sifatida foydalanish asoslari

**Darsning maqsadi:** Epigrafika fani, uning shakllanish tarixi, kriptografiya, qadimgi yozuvlarning vujudga kelishi, O'zbekistonning eng qadimgi yozuvlaridan bugungi kun yozuvlarigacha bosib o'tgan yo'li haqida ma'umot berishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Epigrafika fan sifatida Evropada Uyg'onish davrida vujudga kelgan. Bu esa antik davr tarixi, madaniyati, shuningdek SHarq mamlakatlari tarixi va Bibliyaga bo'lgan umumiy qiziqishning ortishi bilan bog'liq edi. Epigrafikaning dastlabki bosqichlarida u Italiyadan, Gretsiyadan, SHimoliy Afrika mamlakatlaridan va Palastindan topilgan, ya'ni lotin, grek, qadimgi yahudiy va finikiy tillarida yozilgan bitiklarnigina o'rgangan. 18-19 asrlar davomida bu fan o'zining metodikasini ishlab chiqdi. Bunga binoan epigrafika fani bitiklarning qalbaki emasligini aniqlash, undagi yozuvning xarakteriga qarab ularning bitilish sanasini topish, ulardagi ramziy belgilarning ma'nolarini o'rganish, qisqartmalarning qanday so'z ekanligini aniqlash kabi vazifalarni ham bajara boshladi. Epigrafika fanining bu metodikasi yozuvning paleografik xususiyatlariga qarab, bitilmalarni yozilish sanasini aniqlash, bitikdagi matnning o'chib yoki yo'qolib ketgan qismlarini qayta tiklash imkonini yaratgan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar**

1. Deshifirovka nima?
2. Epigrafika qaysi fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi?
3. Epigrafikani o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalar deb o'ylaysiz?
4. Eng mashxur epigrafik matnlar haqida ma'lumot bering.
5. Epigrafika rivojida Bibliyaning qanday o'rni bor.

**Tayanch iboralar:** deshifirovka, Bibliya, finikiy, yahudiy, lotin, grek, Tunyuquq, Bilga xoqon, Kultegin, epios.

**Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.

3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.

4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.

5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.

6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.

7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.

8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.

9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.

10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.

11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.

13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.

14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.

15. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.

16. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.

17. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.

18. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.

## 4-MAVZU: ARXEOGRAFIYA

Reja:

1. Arxeografiya to‘g‘risidagi tushuncha
2. Arxeograkfik to‘plam mavzusini tanlash va to‘plamning ish rejasi
3. Hujjatlarni yig‘ish va tanlash usuli
4. Arxiv hujjatlarini nashrga tayyorlash va arxeografik jihatdan rasmiylashtirish

**Darsning maqsadi:** Talabalarda hujjatlar va manbalarni to’plash, saralash va nashr etish asoslari haqida hamda ularning o’ziga hos xususiyatlari haqida yangi bilimlar hosil qilishni ko’zda tutadi.

**E’tibor bering:** Mustaqillik yillarida arxiv sohasi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda “O‘zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Arxiv ishi yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 2004 yil 3 fevral Qarorlarida o'zbek xalqi va uning davlatchiligini tarixini xolisona o'rganishning ilmiy asoslarini shakllantirish, tadqiqotlarni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish, davlatchiligi haqqoniy tarixini tarixiy manbalar asosida o'rganish, ish yuritish va arxiv ishi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish vazifalari belgilangan. O'zbekiston tarixining dolzarb masalalarini yoritishda, ilmiy tadqiq qilishda arxiv hujjatlari katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida arxiv hujjatlarini nashr qilish ishini tashkil etishni o'rgatish zarurdir. Ana shundan kelib chiqib, "Arxeografiya" fanining ahamiyatini belgilash mumkin. Arxeografiya (grekcha arheos– qadimgi va grafxo - yozaman, ta'riflayman) maxsus, yordamchi tarix sohasi bo'lib, u quyidagilarni o'rganadi: YOzma manbalarning umumiy nashrini; Nashr uchun manbalarni tanlashning prinsipi va uslubini, shuningdek, ularni nashrga tayyorlashni; Nashr bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ishini;- Arxiv va tarixiy manba (hujjat)larning nashr tarixi va tarixiy manbalarning, matnlarning mazmuni; Tarixiy manbalarni nashr etishni. Arxeografiya yozma manbalarni nashr etishning nazariy va amaliy sohalarini o'rganuvchi fandir, u tarixiy yodgorliklarni yig'ib nashr etishning uslublarini, manbalarni ilmiy tanqidiy nashr etishning qoidalarini ishlab chiqadi. Arxeografiyaning vazifasi qo'lyozma manbalarni qayti ishlash usullari va nashrga tayyorlashdan iboratdir. Arxeografiya fan sifatida XII – XVIII asrlarda vujudga kelgan. Dastlabki hujjatlarning tanqidiy nashri XVI – XVIII asrlarda nashr etilganligi va boshq.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Arxeografiyaning o'rganish ob'yektiga nimalar kiradi?
2. Fransiyasuz arxeograflari haqida nimalar bilasiz?
3. Xujjat nashr qilish deganda nimani tushunasiz?
4. "Legenda nima"?
5. Arxeografiya fan sifatida qachon yuzaga kelgan?

**Tayanch iboralar:** Arxeos, arxeografiya, legenda, shablon, musayyabiy, ismoiliy, g'itrifiy, "jirkanch dirham", muhammadiy.

**Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.

3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.

4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.

5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.

6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.

7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.

8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.

9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.

10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.

11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.

13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.

14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.

15. Тарихий манбашунослик. / Ўкув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.

16. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.

17. Қўчкоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.

18. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.

## 5-MAVZU: NUMIZMATIKA

Reja

1. Numizmatika fanining maqsad va vazifalari
2. Numizmatikaning fan sifatida vujudga kelishi
3. Ilk tangalarning vujudga kelishi va ahamiyati
4. Qadimgi O'zbekiston tangalari
5. O'rta Osiyo hududidagi ilk o'rta asrlar tangalari

**Darsning maqsadi:** Talabalarda numizmatika fanining shakllanishi, kishilik tarixidagi ilk tangalarni vujudga kelishi, qadimgi va o'rta asrlar O'zbekiston tangalarining tuzulishi va o'ziga xosliklari borasida yangi bilimlar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Arxeologik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra er yuzidagi dastlabki savdo muomalasi ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlangan.

Arxeologlarning ta'kidlashlaricha inson o'z mehnatining mahsulotlarini ayirboshlash natijasida savdo-sotiqning ilk va sodda turini vujudga keltirgan. Tanqis ashyolarni pul o'rnida ayirbosh qila boshlaganlar. Bunday tovar pul muomalalari mintaqalarda turli ko'rinishda amalga oshirilgan. Masalan, Osiyo va Afrikaning ko'pgina qadimiy xalqlari pulning eng sodda formasi – *kauri* chig'anoqlaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanib kelganlar. Ular ayrim elatlarda qadimdan, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumidan to milodiy XX asrgacha savdo vositasi bo'lib kelgan. Mazkur chig'anoqlar qadimiy Xitoy, YAponiya va Hindiston shaharlarida yaqin vaqtlargacha pul sifatida ishlatilgan. SHuningdek, kauri chig'anog'idan 6-7 asrlarda Germaniyada, 9 asrda SHvetsiyada, 16 asrda Riga shahrida foydalanilganligi hamda Gvineyada ham kauri tasviri tushirilgan pullar mavjud bo'lganligi aniqlangan. Bundan tashqari insonlar orasida jonliq qoramol yoki xarsanglar keyinchalik, munchoq, it tishlari va cho'chqa dumlarining boylamidan iborat pullardan xo'jalik mollari sotib olishda, kelinlar uchun qalin to'lashda foydalanilgan. Hindistonda dur pul sifatida ishlatilgan bo'lsa, Afrikaning ba'zi qabilalarida hurmo mevasi pul vazifasini o'tagan. Qadimiy xalqlarning savdo muloqotida pul ana shunday xarakterdagi turli bosqichlarni bosib o'tdi. Mahsulot pullar, xususan, hayvonlarning terisi, ishlab chiqarish qurollari va boshqa ashyolar hozirgi pullar darajasida muomalada bo'lgan. Ko'pgina xalqlar tovarlarni qoramollar bilan baholashdan keyin metall pullarga o'tganlar. Ungacha mahsulotlarning qiymati ho'kiz, qoramol yoki qo'ylar bilan belgilangan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. "Kaurilar" haqida nimalar bilasiz?

2. O'rta Osiyoda Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar hukumronligi davri yurtimiz tangashunosligiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

3. Muhammad ibn Sulaymon tomonida qanday tangalar zarb qilingan?

4. O'zbekistonning o'rta asrlar tangalari haqida O. Pritsak, A.K. Markov qanday ma'lumot berganlar?

5. XI-XIII asrlarda hukumronlik qilgan qaysi sulola tangalarini butun O'rta Osiyo bo'ylab uchratishimiz mumkin?

**Tayanch iboralar:** darik, dinor, nomisma, Qoraxoniy, Asrlonxon, Tamg'achxon, Sarvarxon, Sulton Sanjar, Ibroxim Sulton, kumush inqirozi,

Chig'atoy, Mahmud Yalavoch, Ma'sudbek, Kebekxon, Tarmashirin, dinor, fuls, kepaki, fulusi adliya.

**Adabiyotlar**


1. Аюпова Ф. Қадимий тангалар // Мозийдан садо. 2000 й. № 1-2.
2. Ишанҳонов С.Ҳ. Нумизматическая коллекция, (материали по истории Узбекистана). – Т., 1963.
3. Кочнев Б. Ўзбекистон пуллари // «Фан ва турмуш». 1995. № 5–6.
4. Спасский И.Г. Русская монетная система. – Лён, 1962.
5. Эрназарова Т., Кочнев Р. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Т., 1997.
6. Ўзб. миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзббекистон миллий энсиклопедияси» нашриёти, барча томлари.
7. Ртвеладзе Э.В. Древние монети Средней Азии. – Т.: Фан, 1989.


## 6-MAVZU: BONISTIKA

Reja

1. Qog'oz pullarning vujudga kelishi tarixi
2. Qog'oz pullarning tarkibini o'rganishda bonistikaning o'rni
3. O'zbekiston qog'oz pullari

**Darsning maqsadi:** Talabalarda Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi davlatlari tangalari va pullari haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Bonistika faninig afan sifatida shaklalanish tarixi. Qog'oz pullarning vujudga kelishi tarixi, ularni muomalaga kiritilishi, qog'oz pullarning tarkibini o'rganishda bonistikaning o'rni. Bonistikaning fan sifatida shakllanishi, maqsad va vazifalari. Bonistikaga oid tadqiqotlar. Bonistikaning asosiy tushunchalari. O'zbekiston qog'oz pullari. Qog'oz valyutasi yozuvlari Xitoyda qog'oz pullar paydo bo'lganidan keyin paydo bo'lgan. Dunyoda 1940- yillardan boshlab qog'oz pullar muntazam to'plana boshlangan bo'lsa-da, 1970- yillardan boshlab kolleksiya nuqtai nazaridan qarala boshlangan. YA'ni bonistika mustaqil fan tarmog'i sifatida e'tirof etila boshlagan. SHuningdek, ayrim AQSH, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarda qog'oz pullarga bag'ishlangan milliy kataloglar chop etila boshlangan. 1961- yilda Xalqaro bank notasi jamiyati (XBNJ) xalqaro banknotalar kolleksiyasi assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Hozirgi kunda Assotsiatsiya dunyoda bir necha ming a'zolariga ega. Jamiyat har oyda bir marta jurnal tarqatadi, s'ezdlarda turli ma'ruzalar o'qiydi.

XBNJ tarkibida Rossiya filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu jamiyatning eng asosiy hamkorlaridan biri – qog'oz valyutasi yozuvlarining dastlabki kataloglari muallifi Albert Peak bo'lib, u banknotalarni yig'ish maqsadini tushuntirib berib, ushbu to'plamga ta'rif bergan. Albert Peak mualliflligidagi "Jahon qog'oz pullarining standart katalogi" uch jildda chop etilgan. Katalog bir necha ming sahifadan iborat bo'lib, dunyodagi barcha mamlakatlarning qog'oz pullari haqida deyarli barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bu katalog har yili yangilab boriladi. Rossiyada birinchi to'plamlar 1769- yilda birinchi pullarning paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgan. Bonistikaning kelib chiqishi Birinchi jahon urushidan keyingi davrga tegishli. CHunki, inflyasiya natijasida mahalliy pul mablag'larining massasi paydo bo'lgan. Birinchi nashrlardan biri Chizhovning "Birinchi Rossiya hukumati hisoblari" kitobi bo'lib, shu jumladan, bonlarda ilgari chop etilgan boshqa nashrlar ham bor edi. Biz shuni unutmasligimiz kerakki, bonlar tangalardan ko'ra qutqarilish ehtimoli kamroq, va merosxo'rlar ularga e'tibor berishmaydi, shuning uchun eski kupon kolleksiyalarining yo'qligi. 1928-yilda Gemixa Lixachev tomonidan sotib olingan, 1919- yilda arzimas yuk mashinasidan sotib olingan va inqilobdan oldin Sankt-Peterburgning eng katta bonuslari to'plami bo'lgan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Bonistika fan sifatida qachon shakllangan?
2. Xiva qog'oz pullari haqida nimalar bilasiz.
3. "Abbos shoyi" haqida ma'lumot bering.
4. Eng birinchi qog'oz pullar qayerda paydo bo'lgan?
5. So'm tarixi haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:**Bonistika, pul birliklari, banknote, shoyi pul, qog'oz pul, turma pul, so'm, dollar, yevro, rubl.

**Adabiyotlar**

1. Аюпова Ф. Қадимий тангалар // Мозийдан садо. 2000 й. № 1-2.

2. Ишанхонов С.Ҳ. Нумизматическая коллекция, (материали по истории Узбекистана). – Т., 1963.

3. Кочнев Б. Ўзбекистон пуллари // «Фан ва турмуш». 1995. № 5–6.

4. Спасский И.Г. Русская монетная система. – Лён, 1962.

5. Эрназарова Т., Кочнев Р. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Т., 1997.

6. Ўзб. миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзббекистон миллий энсиклопедияси» нашриёти, барча томлари.

7. Ртвеладзе Э.В. Древние монети Средней Азии. – Т.: Фан, 1989.

## 6-MAVZU: TOPONIMIKA

Reja

1. Toponimika fanining maqsadi, vazifalari va fan sifatida vujudga kelishi
2. Toponimikaning boshqa fanlar bilan aloqasi – tilshunoslik, geografiya, tarix
3. Toponimlarning tasnifi va ularning bo'linishi

**Darsning maqsadi:** Talabalarda toponimika fanining vujudga kelishi, joy nomlarning o'ziga hos hususiyatlari va kelib chiqish tarixi haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Ariq, jilg'a, soy, ko'cha, tog', shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun kishilar tomonidan ularga nomlar berilgan. Mana shunday joy nomlari fanda toponimlar deb ataladi. Bu kabi toponimlarningi kelib chiqishi, tarixini maxsus fan – toponimika fani o'rganadi. Toponimika so'zi yunoncha topos – joy va onyma – ism, nom so'zlaridan tarkib topgan. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik – lingvistika fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ikkinchi tomondan, geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida biron mamlakat yoki o'lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu nuqtai nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin. SHu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Joylarga qanday nom berish avvalo jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi, Joy nomlari tarixini bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish kutilgan natijani bermaydi. Ana shuning uchun ham toponimika tarix fanlari qatoridan o'rin oladi. Demak, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oralig'idagi fandir. SHu bois toponimikaning faktlari xarakter jihatdan xilma-xil bo'lgan lingvistik, tarixiy va geografik material jalb qilingandagina to'g'ri izohlab berilish mumkin. Dunyoda hamma narsaning nomi bor. «Tog'» deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog' tushuniladi. Tog' ham shunday umumiy atama, turdosh ot. SHunday so'zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, ob'ektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Samarqand deganda, respublikamizdagi Zarafshon

daryosi sohilida joylashgan go'zal tarixiy shahar tushuniladi. Buxoro deyish bilan O'zbekistonning ko'hna shahri, shu nomli viloyat markazi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Toponimika fan sifatida qachon shakllangan?
2. Dunyo nomshunosligi haqida nimalar bilasiz.
3. O'zbekiston joy nomlari haqida ma'lumot bering.
4. Eng birinchi nomlar qanday paydo bo'lgan?
5. Dunyo shaharlari nomalarining kelib chiqshi haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** topos, onima, oronim, gidronim, etnonim, urbonim, Toshket, Shosh, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Andijon, Xiva.

**Adabiyotlar**


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.
12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.

13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.
14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.
15. Тарихий манбашунослик. / Ўкув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.
16. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.
17. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
18. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.

## 7-MAVZU: TARIXIY KARTOGRAFIYA VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Reja

1. Karta va kartografiya haqida ilmiy tushuncha hamda ularning mazmuniga ko‘ra bo‘linishi
2. Tarixiy kartalarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari
3. Tarixiy kartografiyaning fan sifatida mazmuni va tarixiy-kartografik usullarning tarix fanida qo‘llanilishi
4. O‘zbekistonda kartografiya fani tarixi
5. O‘rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari

**Darsning maqsadi:** Talabalarda tarixiy kartalarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari, O‘zbekistonda kartografiya fani tarixi haqida yangi bilim va ko’nikmalar xosil qilishni ko’zda tutadi.

**E’tibor bering :** Ilmiy bilimlar va fan yo‘nalishlari juda tez rivojlanayotgan hozirgi zamonda kam o‘rganilgan “aralash” sohadagi fan tarmoqlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tahlil qilish uchun avvalo tarixiy jarayonlarni, tarix va geografiyani, qolaversa, tarix va kartografiyani, chuqurroq bilish talab etiladi. Kartografiya taraqqiyoti asrlar davomida shakllangan oddiy chizmalardan toki aniq ishlangan kartalar yaratilishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Kartalar mazmuni jihatidan boy bo‘lishi mumkin. Katta bir kartaning mazmunini 100 sahifalik jiddiy ilmiy matnga tenglashtirish mumkin. Kartografik materiallarga faqatgina kartografik tasvirlar kiribgina qolmay, bir qator tadqiqotchilar, ayniqsa, tarixchilar adabiy matnlar ham kartalar tuzish uchun manba bo‘lishi mumkinligini uqtiradilar. Kartografiya ancha kengroq tushuncha bo‘lib, u tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini (ularning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini) kartografik tasvir, tasvirli belgilar vositasi bilan tasvirlashni va tadqiq qilishni o‘rganuvchi fandir. U dastlab

ovchilik va baliqchilik keng tarqalgan hududlarda shakllangan. Kartografiya qadimgi fanlardan bo'lib, bu fan to'g'risidagi dastlabki ta'rifni ("kartografiya" atamasisiz) milodiy II asrda yunon olimi Klavdiy Ptolemey bergan. "Kartografiya" atamasi dastlab XVI asrda uchrab, geografik kartalar ishlashning ilmiy va amaliy sohalarida qo'llanilmagan. Kartografiyaning taraqqiyotini avvalo insoniyatning jamiyatdagi moddiy ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi bilan bog'lash to'g'riroq. Bu taraqqiyotni ma'lum ijtimoiy sharoitlardan, tabiat va er munosabatlaridan tashqarida tushunish noto'g'ridir. Tarixiy tadqiqotlarning asosini insoniyat jamiyatining taraqqiyoti asosidagi faktik ma'lumotlar tashkil qilsa, kartografiya tarixi uchun esa karta va geografik ilmlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Karta bosib chiqarishgacha bo'lgan davrdagi ko'plab qadimgi kartalar turli sabablar, ya'ni yong'inlar, namgarchilik va materialining to'zib ketishi natijasida bizgacha etib kelmagan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Kartografiya fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Tarixiy kartalarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari haqida nimalar bilasiz.
3. Karta haqida ma'lumot bering.
4. Eng birinchi xaritalar qanday paydo bo'lgan?
5. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** topos, onima, oronim, gidronim, etnonim, urbonim, Toshket, Shosh, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Andijon, Xiva.

**Adabiyotlar**


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарк», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.

5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.
12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.
13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.
14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.
15. Тарихий манбашунослик. / Ўкув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.
16. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.
17. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
18. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.

## 8-MAVZU: MANBASHUNSOLIK

Reja

1. Manbashunoslik fanining fan sifatida shakllanishi tarixi
2. Manbalarni turkumlash, aniqlash, tahlil qilish
3. O'zbekiston tarixini yortishda asosiy rol o'ynovchi manbalar tahlili

**Darsning maqsadi:** Talabalarda manbashunoslik fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad vazifalar, O'zbekiston tarixini yortishda asosiy rol o'ynovchi manbalar haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Manbashunoslik fani – tarix fanining ajralmas qismidir. Mazkur fanni o'rganishdan maqsad O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixiga oid turli tillarda ( Qadimgi Erondagi tosh va sopolga o'yib yozilgan kitoblar (mixsimon yozuvlar). Zoroastrizm (otashparastlik miloddan avvalgi VI-milodning VI asri) dinining muqaddas kitobi. (miloddan avvalgi VI-IV asrlarda yozilgan) eron xamda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, qisman tarixini O'rganishda asosiy manba hisoblanadi. "Xavaday namak" («Podshoxnoma») qadimgi eronining 627 yilgacha bO'lgan ijtimoiy-siyosiy

xayotidan baxs etuvchi afsonaviy, «Matakdani xazar dastan» («Bir ming nafar xuquqiy ajrim»)asarlari.

O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekistonining qadimgi va antik davridagi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari xamda geograf olimlarning asarlari Geradot (miloddan avvalgi 490-480 yillar o'rtasi-425 y) yirik qomusiy olim. Uning «Tarix» asari Diodor (miloddan avvalgi 90-21 yillar). «Tarixiy kutubxona» nomli 40-kitobdan iborat asari. Pompey Trog (milodgacha 1-milodning 1asrlari O'rtalarida yashab O'tgan). «Flipp tarix» asari bilan mashxur, Arrian Flaviy ( taxminan 95-175 yil). «Ikandarning yurishlari» asarlari,bular orasida XVII asrda Sibir xamda Mug'ulistonda, Oltoyda xamda O'rta Osiyo, O'zbekistonda topilgan runiy bitiklar aloxida qimmatga ega. Bu yozuvlarnining xozir etti guruxi: Lena-Baykalbo'yi bitigi, Enisey, Mug'uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo bitiklari ma'lum. Bu bitiklar O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekiston xalqlarining arablar istilosi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy xamda madaniy xayotini O'rganishga yordam beradi.O'rta Osiyo, xususan qadimgi O'zbekistonining uzoq O'tmishidagi ijtimoi-siyosiy tarixini O'rganishda quyidagi xitoy manbalari Sima Tsyan' (taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135-86 yillar). Uning «Shi tszi» («Tarixiy esdaliklar») asari, Ban' Gu (39-92) yirik tarixchi olim. 58-82 yillari O'zining «Tsyan' Xan' Shu» («Avvalgi Xan sulolasining tarixi») asari, Fan' Xua (398-445y.y) avvalgi Xan sulolasining tarixchisi. «Xou Xan' Shu» («Keyingi Xan sulolasining tarixi») asarlari Manbashunoslik fanlari uchun asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Manbashunoslik fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar haqida ma'lumot bering.

2. Manbalarni turkumlash asoslari haqida nimalar bilasiz.

3. O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalar haqida ma'lumot bering.

4. O'zbekistonning o'rta asrlar davri tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalar haqida nimalar bilasiz?

5. bugungi kundagi zamonaviy manbashunos olimlar haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** manba, Gerodot, Kvit Kursiy Ruf, Poliyen, Xou Xan Shu, Strabon, Ibn Battuta, Ibn Xavqal, "Tarixi Buxoro", "Osor ul-boqiya", "Tarixi Bayhaqiy".

### Adabiyotlar


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.
12. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.
13. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.
14. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.
15. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.
16. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.


## 9-MAVZU: XRONOLOGIYA

Reja

1. Xronologiyaning fan sifatidagi o'rni
2. Tarixiy va astronomik xronologiya
3. Qadimgi Sharq mamlakatlarida qadim va o'rta asrlarda xronologiya faning taraqqiyoti

4. Abu Rayhon Beruniy dunyo xronologiya fanini rivojiga hissa qo'shgan buyuk Sharq olimi

5. Uyg'onish davrida xronologiya faning rivojlanishi

**Darsning maqsadi:** Talabalarda Xronologiya tushunchasi, uning fan sifatida shakllanish tarixi, qadimgi dunyo, o'rta asrlar hamda zamonaviy dunyo xronoligiyasi haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Xronologiya tarixiy fanlarning rivojlanishi natijasida vaqtni o'rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga kelgan. Xronologiya ilm sifatida qadimgi Bobil, Misr, YUnoniston va Rimda shakllangan. O'rta asrlarda xronologiyaning rivojlanishiga O'rta Osiyolik olimlar ham o'z hissalarini ko'shganlar. Abu Rayhon Beruniyning «Al-osor al-boqiya ani-l-holiya» (O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar), «Qonuni Mas'udiy" asarlarida xronologiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan. Umar Hayyom kalendari esa mukamallik jihatidan Grigoriy kalendaridan ham ustun turadi. 1935 yilda Oliy o'quv yurtlarida tarix fakultetlari ochilgandan keyin boshqa yordamchi tarix fanlari qatorida talabalarga xronologiya fani ham o'qitila boshlangan. Xronologiya – yordamchi tarix fanlaridan biri bo'lib, u vaqt to'g'risidagi fandir. Xronologiya so'zi yunoncha so'z bo'lib, «xronos» – vaqt, «logos» – fan, ya'ni vaqtni o'rganish haqidagi fan deganidir. Xronologiya vaqtlarni o'rganish, hisoblash haqidagi fan sifatida ikki qismga bo'linadi, bular astronomik (matematik) va tarixiy xronologiyadir. Astronomik xronologiyaning vazifasi – osmon jismlarining siljishi to'g'risidagi aniq astronomik davrlarning vaqtini aytib berishdir.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Xronologiya fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Ilk taqvimlarni vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari haqida nimalar bilasiz.
3. "Grigoryan kalendari" haqida ma'lumot bering.
4. Eng birinchi vaqt o'lchov birliklari qayerda paydo bo'lgan?
5. Bugungi kun zamonaviy jahon kalendaralari haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** xronos, soat, hafta, oy, yil, hijriy kalendar, milodiy kalendar, Luidji Lilio, Yuliy, Avgust, Navro'z.

**Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

## 10-MAVZU: METROLOGIYA

Reja

1. Metrologiya fanining maqsad va vazifalari
2. Metrologiya fanining rivojlanish tarixi
3. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davri o'lchov birliklari
4. Zamonaviy o'lchov birliklar

**Darsning maqsadi:** Talabalarda metrologiya tushunchasi, uning fan sifatida shakllanish tarixi, qadimgi dunyo, o'rta asrlar hamda zamonaviy dunyoning o'lchov birliklari haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Turli tarixiy manbalarni o'rganayotganda talaba albatta anashu fanga oid fakt va ma`lumotlarni uchratadi. Agar manbalarda maMilakatimizning turli Yerda ma`lum tarixiy davrlarda qo`llanilib kelingan xar xil o'lchov birliklari tilga olinadi. Talabalar agarda anashu birliklardan bexabar bulsa, manbadagi fakt va ma`lumotlar moxiyatini yaxshi tuShunmay qoladi, turli tasavvurga ega bo'lmaydi. Shu sababdan ham xar bir talaba bu fanga amaliy e`tibor berishi zarur. Metralogiya – o'lchamlar to'grisidagi fan. Metralogiya grekcha «metron» - o'lcham va «logos»- fan, ta`limot so'zlaridan tashkil topgan

bo'lib,o'lcham birliklari tarixini o`rganuvchi fan manosini anglatadi. Metrologiya yordamchi tarix fani sifatida o`lchov birliklari qachon qay tariqa paydo bo`lgani, turli o`lchov birliklari tizimlarining tashkil topishi va rivojlanishi, qadimgi o`lchov birliklarini xozirgi metrik sistema bilan taqqoslash qonun-qoidalari bilan tanishtiradi. Metrologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati katta. Sotsial-iqtisodiy manbalarni o`rganayotganda o`lchov birliklarining asl qiymatini bilmay turib mexnatkashlar ekspluatatsiya asoratidan qanchalik kiynalganini, tovarning narx-navosi, savdo-sotiq abaroti va shening singari xilma xil boshqa amaliy-xo'jalik masalalari xususida ilik bir tasavvurga ega bo'lish kiyin. Manbada ko'rsatilgan o'lchov birliklariga qarab qachon va qaerda yaratilganini, manbani asl yoki soxtaligini aniqlash mumkin.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Metrologiya fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Ilk o'lchov birliklari vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari haqida nimalar bilasiz.
3. O'rta asrlar o'lchov birliklari haqida ma'lumot bering.
4. O'lchov birliklarining eng qadimiylarining vujudga kelishi qaysi davrga borib taqaladi?
5. Bugungi kun zamonaviy jahon o'lchov birliklari haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** metros, metr, kilometr, litr, tonna, kilogramm, tirsak, milya, sajen, gektar.

## Adabiyotlar


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.

8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

## 11-MAVZU: DIPLOMATIKA

Reja

1. Diplomatikaning maqsad vazifalari
2. Qadimda va o'rta asrlardagi diplomatik manbalar
3. Markaziy Osiyodagi rasmiy yozishmalar – muhim tarixiy manba sifatida

**Darsning maqsadi:** Talabalarda diplomatika tushunchasi, uning fan sifatida shakllanish tarixi, qadimgi dunyo, o'rta asrlar rasmiy hujjatlari tarixi haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Amaliy diplomatika" nomi bilan o'rta asrlar Yevropasida vujudga kelgan va rivojlangan, keyinchalik esa Rus davlati hamda bizgacha etib kelgan. "Amaliy diplomatika"ning ayrim qismlari, maqsadi tarixshunoslik tarkibida ham o'qitilgan. Ilmiy diplomatika G'arbiy va Sharqiy Evropada tug'ilgan. Rasmiy hujjatlarning haqiqiyligi haqidagi savol – "amaliy" va ilk ilmiy diplomatikaning asosiy muammosi hisoblanadi. Rasmiy hujatlarning haqiqiyligini aniqlash borasidagi dastlabki tajribalar G'arbiy Evropada VI asrda va Rossiyada XV asrda amalga oshirilgan. Rim papasi Innokentiy III ning qalbaki fatvolar haqidagi 1198 yilgi Farmoyishi bunga misol bo'la oladi. "Diplomatica" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "diplomga oid" degan ma'noni bildiradi. Fan sifatida fransuz olimi monax Jan Mabilonning «Diplomatikaga oid habar beruvchi olti kitob» («De re diplomatica libri six») (1681) asarida uchraydi. Ikinchi "diplomatik urush" Mabilona tadqiqoti doirasidagi bahslar edi (XVII asr oxiri – XVIII asr boshi). SH. Dyukanj va uning o'rta asr lotin (1678) hamda o'rta asr grek tiliga tiliga doir lug'ati (1688). B. Monfokonning "Grek paleografiyasi" nomli oltinchi kitobi (1708). Ilmiy tanqidiy manbalarning Rossiyada vujudga kelishi. "Pomorsk javoblari" A. Denisov (1717). Pyotr farmonlari 1720 va 1722 yy. V.N. Tatishevning "Tarix" asarida tanqidiy elementlar uchraydi. "Diplomatika haqidagi yangi traktat" (1750–1765). I. Xr. Gatereraning (1765) bu boradagi ishlari Polsha, Vengriya, Shvetsiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda diplomatikaning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Germaniya va Portugaliya universitetlarida diplomatikaning o'qitilishi. N. I. Novikov, I. I. Golikov asarlarining e'lon qilinishi va Rossiya rasmiy hujjatlarining G.F. Miller, M.M.Sherbatov, V.V. Krestininlar

tomonidan o'rganilishi. XIX – XX asrlarda Yevropada diplomatikaning rivojiga moyillik bo'lgan. Rasmiy hujjatlar uch yo'nalishda o'rganilgan: qirollik diplomatikasi va imperatorlik yorliqlari, paplik yorliqlari diplomatikasi, shaxsiy rasmiy hujjatlar diplomatikasi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Diplomatika fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Ilk rasmiy hujjatlarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari haqida nimalar bilasiz.
3. O'rta asrlar diplomatik hujjatlari haqida ma'lumot bering.
4. O'zbekiston tarixidagi eng mashxur diplomatik hujjatlar haqida nimalar bilasiz?
5. Diplomatika va manbashunoslikning o'zaro aloqadorligi haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** diploma, hujjat, yorliq, noma, shahodatnoma, buyruq, tirsak, milya, sajen, farmon.

## Adabiyotlar


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.

11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

## 12-MAVZU: GERALDIKA VA SFRAGISTIKA

Reja

1. Geraldikaning maqsad va vazifalri
2. Geraldikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi
3. Sfragistikaning maqsad va vazifalari
4. Muhr turlari va ularning rivojlanish bosqichlari

**Darsning maqsadi:** Talabalarda geraldika hamda sfragistika tushunchasi, ularning fan sifatida shakllanish tarixi, gerblar va tamg'laming tarixiy ahamiyati haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Geraldika va gerald so'zining kelib chiqishi lotin tilidagi "heraldica" bir necha xil ma'noni bildiradi (lotincha - jarchi, gerald). Birinchidan geraldika - bu— gerblar tarkibi va ular haqidagi malumotlami o'rganadi. XIX asming ikkinchi yarmida gerblami o'rganuvchi yordamchi tarix fani sifatida shakllangan. Dastlab XIII –XVIII asming birinchi yarmigacha dvoryan, sex va er-mulklarining gerblarini tuzish bilan geraldlar shug'ullanganlar (geraldika atamasi shundan olingan). XIV asrdan boshlab gerbchilar ustaxonalari tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan. Bora-bora uylar, tarixiy yodgorliklar, davlat bayroqlari, pullar va harbiy qurollarga gerb suratlarini tushirish rasm bo'lgan. Geraldika moddiy madaniyat yodgorliklari hamda gerbli va ramzli yozma manbalami o'rganadi, milliy an'analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy aloqalami o'rganishda yordam beradi. Tarixchi, arxivshunos o'z izlanishlarida turli xildagi tasvir, belgi, gerblarga duch keladi. Gerblami yoki uning alohida elementlarinini qo'lyozma, kitob, tanga, muhr, qurol, jihoz, kiyim, me'morchilik yodgorliklari va boshqalarda ko'rish mumkin. Ammo gerb va geraldik manbalar o'rganilayotganda osonlikcha hal etib bo'lmaydigan muammolar vujudga keladi. Geraldika bilan tanish bo'lmagan tarixchi uchun gerb juboqligicha qoladi. Tadqiqotchi gerbda yozilgan yoki undagi tasvirlami to'g'ri o'qiganda ham, gerbda bitilgan barcha ma'lumotlami aniq baholay olmaydi, Masalan, u boshqa gerblar bilan qanchalik mos kelishi, o'z davrida qanday ahamiyatga ega bo'lgan, u yoki bu buyumga bog'liqligi kabi savollarga tarixchi geraldik bilimlarsiz javob topolmaydi. Geraldika fani bilan tanishgan tarixchi topilgan manbadan oladigan ma'lumotlarining hajmi ortadi. Masalan, muzeylarda moddiy manbalar bilan ishlovchi uchun geraldika xronologik, bir necha mamlakatga taalluqli, manbaning ajralmas xususiyalarini ochib berishda juda qimmatli ko'mak beradi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Geraldika fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Sfragistika haqida nimalar bilasiz.
3. O'rta asrlar gerb va tamg'alari va ularni o'ziga hosliklari haqida ma'lumot bering.
4. O'zbekiston tarixidagi eng mashxur geraldik va sfragistik materiallar haqida nimalar bilasiz?
5. Geraldika va sfragistikaning o'zaro aloqadorligi hamda farqli tomonlari haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** geraldika, sfragistika, gerblar, tamg'alar, ramzlar, hunarmandchilik belgilari, totemlar, mifologik qarashlar, muhr.

**Adabiyotlar**


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарк», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

## 13-MAVZU: GENEALOGIYA.

Reja

1. Genealogiya fanining maqsad va vazifalari
2. Hukmdorlar shajaralari haqida ma'lumot beruvchi genealogik manbalar
3. Diniy suluklar tarixiga oid manbalar

**Darsning maqsadi:** Talabalarda genealogiya tushunchasi hamda ushbu fanning fan sifatida shakllanish tarixi, shajaralar va sulolalalar tarixini o'rganishning dolzarbligi haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Genealogiya qadimiy tarixiy fanlardan biri hisoblanadi. Odamlarda o'z avlodlarining kelib chiqishiga qadimdanoq qiziqishlar bo'lgan. Qadimgi jamiyatda odamning ijtimoiy ahvoli uning erkin yoki qaramligini bildirgan. O'z avlodlarining jasoratlari, qahramonliklari haqidagi ma'lumotlarni bilishgan va g'ururlanishgan. Qadimda rimliklarda ko'milayotgan odamning qaysi urug'ga tegishligini bildiruvchi rasmlar, belgilar qo'yish udumi bo'lgan. Bizgacha skandinaviya xalqlarining qarindosh-urug'chilik munosabatlariga oid ma'lumotlar yetib kelgan. Island xalqlari haqida Arli Torgilsonnning "Islandlar haqida kitob" nomli (1134 - 1138- yillar) asarida qiziqarli genealogik ma'lumotlar saqlangan. XV asrga kelib Yevropada shohlar sulolasi haqidagi ma'lumotnomalar paydo bo'la boshlagan. XVI asrga kelib genealogiya yorliqlarda va boshqa hujjatlarda foydalanila boshlandi. Geneologiyaning rivojlanish bosqichi XVI - XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda genealogiyaning ilmiy asoslari shakllana boshlagan, chunki genealogik malumotlar jamlangan me'moriy yodgorliklar, akt hujjatlari, memuar asarlarni tanqidiy o'rganish ishlari olib borilgan. XVI - XVII asrlarda ijtimoiy jarayonlarning jadal sur'atda o'sishi ko'pgina noma'lum oila yoki shajaralarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Savdogar yoki zodagonlar o'zlarining shajaralarini uzoq o'tmishga borib taqalishi haqida jar solishgan. Masalan XVII asr oxirlarida Angliyada Genrix VIII davrida uning geraldlari barcha grafliklarni aylanib, mahalliy dvoryanlarning asl kelib chiqishi dvoryanlardan ekanligini tekshirib chiqishgan. Ular haqidagi ma'lumotlarni cherkov ma'lumotnomalari, yorliqlar, ularning qarindoshlarining qabr toshidagi gerblarni va boshqalarni o'rganishib, tekshirishlar natijasi "tashrif daftarchasi"ga kiritilib, geraldlar idorasida qayd etilgan va ushbu ma'lumotlar huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan. Aniqlangan soxta, noqonuniy dvoryanlar esa o'sha graflikning asosiy shaharlarida xochlarda osilgan va ularning qarindoshlari va yaqinlariga bu soxta nomdan foydalanish taqiqlangan. Bundan tashqari bu turdagi ommaviy tekshirish ishlari Fransiya, Germaniya, Venetsiya va Italiya kabi davlatlarda olib borilgan. Fransiyada noqonuniy faxriy unvonlarni soxtalashtirilganlarga jarima solingan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Genealogiya fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Shajara tushunchasi haqida nimalar bilasiz.
3. Qadimgi Misr sulolari haqida ma'lumot bering.
4. "Turin papirusi" deganda nimani tasavvur qilasiz?
5. Sizning oilangizda shajara yurtiladimi ?

**Tayanch iboralar:** gen, genealogiya, shajara, "Turin papirusi", sulola, dinastiya, oila, kelib chiqish, aslzodalik.

**Adabiyotlar**


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.


## 14-MAVZU: TARIXSHUNOSLIK

Reja

1. Tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalari
2. O'zbekiston tarixining qadimgi davri va o'rta asrlar davri tarixi tarixshunsoligi
3. Yangi davr tarixi tarixshunosligi

**Darsning maqsadi:** Talabalarda tarixshunoslik tushunchasi hamda ushbu fanning fan sifatida shakllanish tarixi, tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalari, O'zbekiston tarixining qadimgi davri va o'rta asrlar hamda yangi davri tarixinin o'rganilish darajasi haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Tarixshunoslik tarix fani tarixi. Tarixnavislik, tarixshunoslik, uning rivojlanishi, fan sifatida shakllanishi. Tarixshunoslik fanining tarix fani va ijtimoiy fanlar doirasida tutgan o'rni. Tarixshunoslik fanining boshqa tarixiy fanlar bilan bog'liqligi. Qahramonlik dostonlari, ularni o'rganish usullari. Avesto dastlabki yozma tarixiy-diniy asar. Avestoda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix. Avestoning tarixiy-ma'rifiy ahamiyati. Qadimgi yunon tarixnavislari Arablar istilosi. Inson faoliyatining barcha sohalarida islom dinining hukmronligi. O'rta Osiyo xalqlarining arablarga qarshi ozodlik kurashi tarixshunosligi. Musulmon uyg'onishi. Dunyoviy va diniy bilimlar, ularning bir-biriga ta'siri. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari. Abulfazl Bayhaqiy va uning tarixiy asarlarida voqealar bayoni usuli. Musulmon uyg'onishi davri haqidagi tarixiy adabiyotlar. Mo'g'ullar istilosi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurash tarixnavisligi. Xitoy tarixnavisi Chan Chun. Otamalik Juvayniy, Rashididdin asarlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixi muammolari. V.V.Bartol'd va uning "Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida" monografiyasi. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi. Amir Temur va temuriylar davri buyuk yuksalish davri. Amir Temur davri tarixshunosligi. Amir Temurning siyosiy qarashlari. "Temur tuzuklari" tarixiy asar. Nizomiddin SHomiyning "Zafarnoma" asari. Temur davri haqidagi xorij tarixshunosligi. Temuriylar davrida tarixiy bilimlar. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek. Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamir va boshqalarning ilmiy meroslari

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Tarixshunoslik fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalari haqida nimalar bilasiz.
3. O'zbekiston tarixining qadimgi davri tarixi tarixshunosligi haqida ma'lumot bering.
4. Yangi davr tarixi tarixshunosligi dolzarb muammolari deganda nimani tasavvur qilasiz?

5. Zamonaviy tarix fanida tarixshunos olimlardan kimlarni bilasiz ?

**Tayanch iboralar:** tarixshunoslik, o'ragnilish darajasi, B. Ahmedov, D. Alimova, , Abulfazl Bayhaqiy, N. Shomiy.

**Adabiyotlar**


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Тошкент: «Шарк», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.
4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.
5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.
6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.
10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.
11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.


## 14-MAVZU: MADANIYATSHUNOSLIK

Reja

1. Madaniyatshunoslik fanining maqsad va vazifalari
2. Madaniyatshunoslik fanining fan sifatida shakllanish tarixi
3. Madaniyatshunoslik fanining boshqa gumanitar fanlar bilan aloqadorligi

**Darsning maqsadi:** Talabalarda madaniyatshunoslik tushunchasi hamda ushbu fanning fan sifatida shakllanish tarixi, madaniyatshunoslik fanining maqsad va vazifalari, Madaniyatshunoslik fanining boshqa gumanitar fanlar bilan aloqadorligi haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Madaniyatshunoslik fanining o'ziga xos xususiyati – uning keng qamrovligi ekanligi, uning ko'p fanlarga, ayniqsa, gumanitar fanlarga yaqinligidir. Jumladan, madaniyatshunoslik tarix va etnografiya, dinshunoslik, ilohiyot, musiqa, haykaltaroshlik, me'morchilik fanlari bilan zich aloqada,

to'g'rirog'i, madaniyatshunoslik shu fanlarning o'rganish ob'ektidan oziqlanadi. Madaniyatshunoslik falsafaga ham yaqindir. Xususan, madaniyatshunoslikning nazariy masalalari madaniyat falsafasiga aloqador. Madaniyatshunoslik axloqshunoslik fani bilan bog'liqdir, chunki jahon sivilizatsiyasining ko'p ming yillik tarixiy bosqichlari insonlarning axloqiy, ma'naviy ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shu fikrni, buyuk Sharq mutafakkir Forobiy «Arou ahli madinatu-l-fuzalo" ("Fozillar shahri aholisining qarashlari") asarining 13-bobida madaniyatning kelib chiqishini insonlarning tabiatidagi xislatlar, xususiyatlar bilan jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi bilan, ya'ni insonlarning biologik va ijtimoiy mohiyati bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. "Nutqli insonning ma'qulot – aqli qabul qiladigan qismi tuzilishi qanday, ularning turlari qanday: quvvatli aql (aqli qaviy) nima va fe'lli aql (aql bil-fe'l) nima va moddiy aql nima va aqli munfail (passiv intellekt) nima degani-yu, faol aql (aktiv aql) nima degani va aqlning darajalari haqida nega faol aql deb yuritiladi-yu, uning fe'lli harakati nima? – shular haqida... ma'qulot sifatida tasvirlanadi, hatto fe'lli harakatdagi aql bo'ladi..." Iroda degani nima, ixtiyor degani nima, ular ikkalovi nafs-ruhning qaysi jihatlariga taalluqli; to'la baxt-saodat nima-yu, fazilat, nuqsonlar nima, xayrli ishlar nima-yu, yomon ishlar nima, amallardan nimalar go'zal sanaladiyu, nimalar qabih sanaladi – shular haqida fikr yuritadi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Madaniyatshunoslik fani fan sifatida qachon shakllangan?
2. Madaniyatshunoslik fanining maqsad va vazifalari haqida nimalar bilasiz.
3. "Madaniyat" so'ziga ta'rif bering.
4. Madaniyatshunoslikning dolzarb muammolari deganda nimani tasavvur qilasiz?
5. Bugungi kunda xalqlarning mingyillik madaniyatlarining yo'qolib ketayotganligiga munosabatingiz qanday?

**Tayanch iboralar:** madaniyatshunoslik, madaniyat, "madinat", globallashuv, o'lik madaniyatlar, S. Hantington.

**Adabiyotlar**


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
3. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.

4. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.

5. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.

6. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.

7. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.

8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.

9. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.

10. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.

11. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

## MUSTAQIL TA'LIM TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI.

Mustaqil ish talabada fan bo`yicha hosil bo`lgan bilim va ko`nikmalarni ilmiy ijod orqali namoyon bo`lishini aniqlash maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ish mavzusi fanni o`tishning dastlabki soatlarida o`qituvchi tomonidan taqdim etiladi.Talaba o`zi tanlagan mavzusi bo`yicha izlanishlar olib boradi. Dastlabki jarayonda mavzu bo`yicha adabiyot va manbalarni to`playdi. To`plangan adabiyot va manbalar asosida mavzuning ish rejasini tuzadi. Odatda mustaqil ish uchun sodda reja tuzish tavsiya etiladi. Mustaqil ishni yozish talabada ilmiy ko`nikmalarning shakllanishiga ham yordam beradi. Mustaqil ishni yozish jarayonida talaba tadqiqot ishlari uchun talab etilgan barcha jihatlarga to`la rioya etishi shart.

### Tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari

| № | Mavzular | Topshirish shakli |
|---|---|---|
| 1. | Kirish. Kursning maqsad va vazifalari. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 2. | Paleografiya. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 3. | Arxeografiya. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 4. | Epigrafika | Axborot (referat) tayyorlash |
| 5. | Numizmatika. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 6. | Bonistika | Axborot (referat) tayyorlash |
| 7. | Toponimika. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 8. | Tarixiy geografiya va uning asosiy yo'nalishlari. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 9. | Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 10. | Manbashunoslik | Axborot (referat) tayyorlash |
| 11. | Xronologiya. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 12. | Metrologiya. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 13. | Diplomatika. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 14. | Geraldika va sfragistika. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 15. | Genealogiya. | Axborot (referat) tayyorlash |
| 16. | Tarixshunoslik | Axborot (referat) tayyorlash |
| 17. | Madaniyatshunoslik | Axborot (referat) tayyorlash |

"Klaster metodi"



## GLOSSARIY

**Paleografiya** – "paleos" – qadimgi; grafos – yozaman, ya'ni qadimgi yozuvlarning kelib chiqishini o'rganuvchi fan.

**Arxeografiya** – "arxeos" – qadimgi; grafos – yozaman, ya'ni qadimgi va yangi davr manbalarini saralash va nashr etish usullari haqida ma'lumot beruvchi fan.

**Epigrafika** – "epios" – ustiga; grafos – yozaman, ya'ni qattiq jismlar sirtiga yozilgan yozma manbalarni o'rganuvchi fan.

**Numizmatika** – "nomisma" – tanga; ya'ni tangashunoslik.

**Bonistika** – "bon" – qog'oz, pul ma'nolarida; ya'ni qog'oz pullar hamda banknotalarni o'rganuvchi fan.

**Toponimika** – "topos" – joy, makon; "onima" – nom, ya'ni nomshunoslik, joy nomlarini kelib chiqish tarixi va sabablarini o'rganuvchi fan.

**Xronologiya** – "xronos" – vaqt (qadimgi Yunonistonda vaqt va zamon homiysi); logos – fan, ta'limot, ya'ni vaqt o'lchov birliklari va ularni kelib chiqishini o'rganuvchi fan.

**Metrologiya** – "metros" – o'lchayman; logos – fan, ta'limot, ya'ni og'irlik, uzunlik, yuza va hajm o'lchov biriklarini kelib chiqish tarixi hamda rivojlanish tendensiyalarini o'ragnuvchi fan.

**Diplomatika** – "diploma" – ikki buklangan qog'oz; ya'ni rasmiy hujjatlar va yozishmalarni o'rganuvchi fan.

**Sfragistika** – "sfragis" – tamg'a, muxr; ya'ni tamg'alar, muxrlar, ulardagi yozuvlar, ramzlarni tahlil qiluvchi fan.

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

### I. Rasmiy adabiyotlar


1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т., 2017.

2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Т.: Ўзбекистон, 1998.

3. Каримов И.А. Юксак маънвият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустакиликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.

5. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халкимиз билан курамиз // Халқ сўзи. – 2016 йил 15 декабрь.

6. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуклари – тараккиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016 йил. – 31 декабрь.

7. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.

8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017 йил 10 январь.

9. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017 йил. – 17 январь.

10. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш тўғрисидаги Ҳаракатлар стратегияси" // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017 йил. – №6. – 70-модда.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги №2909-сонли Қарори // Халқ сўзи. 2017 йил 21 апрель

## II. Asosiy adabiyotlar

12. Saidboboyev Z,. Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.

13. Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. – М., 2000.

14. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. Введение в специальные исторические дисциплины. – М.: МГУ. 1990.

15. Голубцов И.А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963.

16. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.

17. Ермолаев И.П. Историческая хронология. – Казан, 1980.

18. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.

19. Каменцева Е.И., Устюгов Н.В. Русская сфрагистика и геральдика. 2-е изд. – М., 1974.

20. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956.

21. Каштанов С.М. Предмет, задачи и методы дипломатики / Источниковедение. Теоритечиские и методические проблемы. – М., 1969.

22. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965.

23. Постников А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. – М.: Наука, 1985.

24. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.

25. Тарихий манбашунослик. / Ўкув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.

26. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.

27. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.

28. G'ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005.

## III. Internet ma'lumotlari.

29. www.ziyonet. uz
30. www.history. ru
31. www.archive. ru

## MUNDARIJA:


| № | Bo'limlar | sahifasi |
|---|---|---|
| 1 | Kirish | 3 |
| 2 | Seminar mashg'ulotlari mavzusi, rejasi, savollari, test topshiriqlari | 4 |
| 3 | Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari. | 35 |
| 4 | Yangi pedogogik texnologiya (na'muna: "klaster") | 36 |
| 5 | Glossariy | 37 |
| 6 | Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati | 38 |